

"Tashkent Flower Fes 2022" ga SXTEB fakulteti talabalar tashrifi

"Suv xo`jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talabalari 6-8-may kunlarida Toshkent shahrida o`tkazilayotgan "Tashkent Flower Fest" gullar festivalida ishtirok etmoqda. Poytaxtimizda va ko`plab shaharlarimizda o`tkazilishi an`anaga aylangan bundayin o`ziga xos, jozibador festivallar, yoshlarimizda o`zgacha ko`taringkilik kayfiyatini uyg`otmoqda desam aslo mubolag`a qilmagan bo`laman.



Misol tariqasida Fakutetimiz talabalarining ushbu festivalga tashrifi natijasida xursandchiliklar ularning yuzu ko`zidan ko`rinib turgani so`z isbotidir. Ma`lumot o`rnida, bu galgi festivalda 1 milliondan ortiq tirik va 800 mingdan ortiq sun'iy gullardan foydalanilgan.



"Suv xo`jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti tyutori I.Xolbutayev ma`lumoti

Universitet axborot xizmati